

Istisnolar ro'yxati

Istisnolar ro'yxati qanday faoliyat turlari biror-bir holatda ham moliyalashtirilmasligi kerakligini belgilab qo'yadi:

1. Majburiy mehnat[1] yoki bolalar mehnati[2].
2. Qabul qiladigan davlat qonunchiligi yoki me'yoriy hujjatlariga ko'ra hamda xalqaro konvensiyalar, kelishuvlarga muvofiq noqonuniy deb hisoblanadigan yoki xalqaro miqyosda to'xtatilishi yoki ta'qiqlanishi kerak bo'lgan faoliyat yoki materiallar, xususan:
 - ozonni buzadigan moddalar, PXB (polixlorlangan bifenillar) va boshqa maxsus, xavfli farmasevtik moddalar, pestisidlar/gerbisidlar yoki kimyoviy moddalar
 - Yo'q bo'lib ketish xavfi bor (CITES), Yovvoyi fauna va flora turlarini sotish haqidagi xalqaro konvensiya bilan tartibga solinadigan yovvoyi tabiat yoki mahsulotlarni kamaytirish yoki yo'q qilish, yoki
 - baliq ovlashning nooqil turlari (masalan, portlatib ovlash, dengiz muhitida uzunligi 2,5 km dan oshadigan drifter to'r bilan ovlash)
 - o'ta muhim o'rmon hududlarini yoki o'rmon bilan bog'liq juda muhim tabiiy yashash muhitlarini o'zgartirish yoki kamaytirish[3]
3. Butunjahon me'rosi bo'lgan tabiiy obyektlarga biror-bir yo'l bilan ta'sir qilish <https://whc.unesco.org/en/list/>, agar ekologik baholash davomida loyiha (i) qo'riqlanadigan hudud kamayishiga olib kelmasligi hamda (ii) ijobiy ekologik va ijtimoiy foyda berishi tasdiqlanmasa.
4. BMT milliy o'rmonlar va qo'riqlanadigan hududlar ro'yxatiga kiritilgan hududlarga biror-bir yo'l bilan ta'sir qilish <https://www.protectedplanet.net/>, agar ekologik baholash davomida loyiha (i) qo'riqlanadigan hudud kamayishiga olib kelmasligi hamda (ii) ijobiy ekologik va ijtimoiy foyda berishi tasdiqlanmasa.
5. Xalqaro tabiatni qo'riqlash ittifoqi (XTQI) ta'rifi ko'ra I, II, III va IV toifaga kiradigan qo'riqlanadigan hududlarda foydali qazilmalar olish yoki infatizilma qurish (to'liq qo'riqxonalar/yovvoyi hududlar va milliy o'rmonlar, tabiat yodgorliklari, yashash muhiti/turlari boshqariladigan hududlar) hamda bunday hududlarga biror-bir yo'l bilan ta'sir qilish. XTQI ta'rifi ko'ra V toifa (qo'riqlanadigan landshaft/dengiz landshafti) va VI toifa loyihalari (resurslari boshqarilib qo'riqlanadigan hududlar) XTQI boshqarish maqsadlariga muvofiq kelishi kerak <https://www.protectedplanet.net/>, agar ekologik baholash davomida loyiha (i) qo'riqlanadigan hudud kamayishiga olib kelmasligi hamda (ii) ijobiy ekologik va ijtimoiy foyda berishi tasdiqlanmasa.
6. Agar Bazel konvensiyasi va tegishli me'yoriy hujjatlarga muvofiq bo'lmasa chegaradan o'tkazib chiqindi va ishlatilgan mahsulot bilan savdo qilish.
7. Tabiatni qo'riqlash qadriyati baland hududni yo'q qilish[45].
8. Radioaktiv moddalar va erkin asbest tola ishlab chiqarish va sotish[6].
9. Oilani rejalashtirish usuli sifatida majburiy yoki noixtiyoriy abort o'tkazadigan loyihalar yoki kompaniyalar; kimnidir abortga majbur qiladiganlar; oilani rejalashtirish usuli sifatida noixtiyoriy sterilizatsiya o'tkazishga pul to'laydiganlar yoki o'tkazadiganlar; sterilizatsiya o'tkazishga majbur qiladiganlar yoki mablag' berib shunga undaydiganlar; oilani rejalashtirish usuli sifatida abort o'tkazish yoki noixtiyoriy sterilizatsiya qilish usullari va muolajasining o'zi bilan to'liq yoki qisman bog'liq bo'lgan har qanday biotibbiy tadqiqotlar haqini to'laydiganlar yoki o'tkazadiganlar.
10. Quyida keltirilgan mahsulot turlarining birortasi loyiha asosiy moliyalanadigan faoliyatning jiddiy qismi bo'lsa (savdo, ishlab chiqarish va tarqatish)[7]:
 - Spirтли ichimliklar (pivo va vinodan tashqari);
 - Tamaki mahsuloti;
 - Qurov va o'q;
 - Kattalar uchun (18+) va siyosiy xususiyatli media kommunikatsiya;
 - Pornografiya va/yoki fohishalik;
 - Irqchilikni targ'ib qiladigan va/yoki demokratiyaga qarshi ommaviy axborot vositalari;
11. Ko'mir qidirish, topish, olish va qayta ishlash.
12. Neft topish va olish.
13. Yer ostidagi gazni qidirish va/yoki olish[8].
14. Asosan elektr quvvati ishlab chiqarish uchun sarflanadigan ko'mir tashiydigan transport va tegishli infratizilma[9].
15. Neft quvurlari.
16. Neftni qayta ishlaydigan zavodlar.
17. Ko'mirda ishlaydigan yangi elektrostansiyalarni qurish va borlarini yangilash (shu jumladan ikkitaliklarini).
18. Faqat[10] baland haroratli yoqilg'ida yoki faqat dizel yoqilg'isida ishlaydigan, umumiy foydalaniladigan energiya tizimi uchun energiya chiqaradigan va havoga CO2 chiqishini absolyut ko'paytiradigan yangi elektr stansiyalarni qurish yoki borlarini yangilash[11].
19. Quyidagilarga jiddiy va qaytarib bo'lmaydigan ta'sir qiladigan to'g'onlar qurish:
 - daryo yuqorisi yoki quyisidagi tabiiy ekologik tizimni buzadigan;
 - tabiiy gidrologiyani o'zgartiradigan;
 - katta hududlarni suv bosadigan;
 - biologik xilma-xillikka ta'sir qiladigan;
 - ko'p aholini (5 000 nafar va undan ko'p insonni) joyidan ko'chishga majbur qiladigan;
 - mahalliy aholining tirikchilik uchun pul topish imkoniyatiga ta'sir qiladigan;
20. Qabul qiladigan davlat hukumati nazorat paketiga egalik qiladigan yoki samarali boshqarish nazoratini amalga oshiradigan loyihalar ki kompaniyalar (moliyaviy kelishuvga ko'ra xususiyashtirilayotgan kompaniyalarga investitsiya qo'yish bu qoidadan istisno qilinadi).
21. Xalqaro darajada e'tirof qilingan inson huquqlarini qo'pol buzadigan hukumatlarga bevosita jiddiy yordam beradigan loyihalar yoki kompaniyalar.
22. Tegishli yurisdiksiya sudi yoki ma'muriy organi noqonuniy monopoliya faoliyatida aybdor deb topgan kompaniyalar.
23. Invertirlangan milliy korporatsiyalar deb hisoblanadigan kompaniyalar yoki ellik foizdan (50%) ko'pi bevosita invertirlangan milliy korporatsiyalarga tegishli bo'lgan kompaniyalar yoki ellik foizdan (50%) ko'pi invertirlangan milliy korporatsiyalarga tegishli bo'lgan boshqa kompaniyalar orqali egalik qiladigan kompaniyalar.
24. Elektr energiya va/yoki issik ishlab chiqarish uchun ko'mirdan foydalanishni ko'paytirish reja qilingan har qanday faoliyat turi[12].
25. Direktorlar kengashi va Kompaniya rahbariyati maqsadga muvofiq emas yoki asoslanmagan deb e'tirof etgan boshqa faoliyat turlari.

[1] Majburiy mehnat – XMT konvensiyasiga ko'ra kuch ishlatish yoki jazo berish bilan qo'rqitib majbur qilinadigan va inson o'zining erki bilan bajramaydigan har qanday mehnat yoki xizmat.

[2] Mahalliy qonunlarga ko'ra maktabga borish majburiy bo'lmasa yoki ishga kiradigan eng kam yosh belgilab qo'yilmagan bo'lsa Inson huquqlari borasidagi XMT asosiy konvensiyalariga ko'ra (Eng kam yosh haqidagi C138 sonli konvensiya) ishga kirishi uchun inson kamida 14 yoshga to'lgan bo'lishi kerak, Bunday hollarda ishga kiradigan yosh kattaroq bo'ladi.

[3] O'ta muhim tabiiy yashash muhiti deb hisoblanadigan o'rmon turlari. O'ta muhim o'rmonlar o'sadigan hududdagi, uglerod gazi yutilishi uchun juda muhim bo'lgan birlamchi va eski o'rmonlar.

[4] Yo'q qilish (1) deganda hudud yo'q qilingani yoki uning butunligi jiddiy kamaygani uchun yerdan va suvdan foydalanish jiddiy va ko'p muddatga o'zgargani yoki (2) yashash muhitining hudud vazifasini bajarolmaydigan bo'lib o'zgarishi tushuniladi.

[5] Tabiatni qo'riqlash qadriyati baland bo'lgan hudud (TQQB) deganda bunday qadriyatlar alohida ahamiyatga ega bo'lgan yoki o'ta muhim deb hisoblanadigan tabiiy yashash joylari tushuniladi (qarang <https://hcvnetwork.org/>).

[6] Bu qoida tabiiy jihozlarni, sifatni nazorat qiladigan (o'lchaydigan) jihozlarni va radioktiv manba trivial va/yoki adekvat berkitiladigan boshqa jihozlarni sotib olishga qo'llanmaydi.

[7] "Jiddiy" deganda jamlangan balansi yoki daromadining 10 foizidan ko'pi tushuniladi.

[8] Liminik faol ko'llardan gaz olish bu qoidadan istisno qilinadi.

[9] "Asosan" deganda ishlanadigan infratizilma tonnajining 50 foizdan ko'pi tushuniladi.

[10] Investitsiya jamg'armalari orqali kapitalda ishtirok etgan taqdirda faqat baland haroratli yoqilg'ida yoki faqat dizel yoqilg'isida ishlaydigan yangi yoki bor elektr stansiyalariga investitsiya qo'yish (jamg'armaning 20 foizidan ko'p bo'lmasligi kerak) faqat energiya kam ishlab chiqariladigan, gaz yoki yangilanadigan energiya manbalari ko'rinishidagi iqtisodiy va texnik hayotiy muqobillari yo'q bo'lgandagina,

[11] ya'ni energiya samaradorligini oshirish borasidagi tadbirlar quvvat yoki yuklanish koeffisienti oshirilishini kompensatsiya qilmaydigan o'rinlarda ruxsat etiladi.

[12] Bu qoida kimyoviy reaksiyani boshlab beradigan ko'mirga (masalan, cho'yan va po'lat ishlab chiqarish uchun temir rudasiga qo'shiladigan metallurgiya ko'miriga) yoki boshqa haqiqiy va tijorat tomondan hayotiy bo'lmagani uchun boshqa materiallar bilan qo'shib ishlatiladigan ko'mirga tegishli emas.